



ANTON PAVLOVICH CHEXOVNING «UYQU ISTAGI» HIKOYASIDAGI
MUHIT VA IJTIMOIIY HAYOT BOG'LIQLIGI

Usarova Laylo Ibragimovna

*Samarqand Davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası
dotsenti*

Sharipova Zebo Shuhratovna

Samarqand Davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada rus yozuvchisi A.Chexovning «Uyqu istagi» hikoyasidagi tasvirlangan muhit va o'sha davr ijtimoiy hayotining qanchalik realistik tarzda ochib berilgani haqida fikr yuritiladi.*

KALIT SO'ZLAR: *Varka, uy, chiroq, bola, qiz, alla, tush, uyqu, doktor, beka.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И
ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ В РАССКАЗЕ АНТОНА ПАВЛОВИЧА
ЧЕХОВА «ЖЕЛАНИЕ СПАТЬ»

Усарова Лайло Ибрагимовна

*Доцент кафедры узбекского языка и литературы Самаркандского
государственного педагогического института*

Шарипова Зебо Шухратовна

*Студентка Самаркандского государственного педагогического
института*

АННОТАЦИЯ: *В статье рассматривается реалистическое изображение окружающей среды и общественной жизни того времени в рассказе русского писателя А. П. Чехова «ЖЕЛАНИЕ СПАТЬ».*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Варька, дом, лампа, мальчик, девочка, Алла, сон, сон, доктор, хозяйка.*

**THE INTERCONNECTION OF ENVIRONMENT AND SOCIAL LIFE IN
ANTON PAVLOVICH CHEKHOV'S STORY "THE DESIRE TO SLEEP"**

Usarova Laylo Ibragimovna

*Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature,
Samarkand State Pedagogical Institute*

Sharipova Zebo Shuhratovna

Student of Samarkand State Pedagogical Institute

ANNOTATION: *This article discusses the realistic depiction of the environment and social life of that period in the story "The Desire to Sleep" by the Russian writer A. Chekhov.*

KEYWORDS: *Varka, house, lamp, boy, girl, alla, dream, sleep, doctor, mistress.*

“Uyqu istagi” (Спать хочется) hikoyasi 1888-yil yaratilgan bo‘lib, muallif ushbu hikoyada o’sha davr ijtimoiy muhitini kichik bir hikoya ustida mohirona tasvirlab beradi. Mehnatkash va qashshoq aholining moddiy ahvolidan qanchalik qiyinligi, qishloq zonalaridagi ko‘p oilalar o‘zini to‘liq ta‘minlay olmasligi - bularning barchasi ushbu kichik hikoyada o‘z aksini topgan. Umumiy kontekstga ko‘ra, o‘n uch yoshda bo‘lgan Varka XIX asr oxirida keng tarqalgan uy xizmatkorlari tizimi doirasida o‘ta zaif holatda. Uning xo‘jayinlar uyidagi mavjudligi iqtisodiy zarurat bilan bog‘liq. Oila uning arzon, uzluksiz mehnatiga muhtoj bo‘lib, uy-joyini saqlash xarajatlarini minimallashtirishga intilish bilan bog‘liq bo‘lgan ekspluatatsiyaning yopiq doirasini yaratadi. Hikoya aqliy salomatlik jismoniy zo‘riqishlar ortidan qanday yomonlashishini mohirona namoyish etadi. Hikoya bosh qahramoni - 13 yoshli qizaloq Varkaning bir kuni misolida o‘tgan asrning 80-yillaridagi deyarli butun mamlakat aholisining kundalik hayot tarzi ochib berilgan. Hikoyaning boshlang‘ich qismi tundagi xona tasviri bilan boshlanadi va beixtiyor kitobxonni o’sha davrga olib kiradi:

“Tun. O‘n uch yashar dastyor qiz Varka bola yotgan belanchakni tebratadi va eshitilar-eshitilmas ming‘iraydi.



Alla aytay senga-yo,

Alla qo‘zim, alla-yo...

Sanam oldiga shamchiroq yoqilgan, uyning u burchagidan bu burchagiga tortilgan arg‘amchiga yo‘rgak latta va katta qora shimlar osilgan. Chiroq shu‘lasidan shipga katta doira shaklidagi ko‘kimtir dog‘ tushib turipti. Shim va lattalar pechkaga, belanchakka, Varkaga uzun-uzun soya solgan... Chiroq lipillaganda shipdagi dog‘ bilan soyalarga jon kirib, shamoldan silkinayotganday qimirlaydi.” [1]

Ushbu parchadagi “Shipdagi ko‘kimtir dog‘, uzun-uzun soyalar, osilgan yo‘rgak latta va qora shimlar” - barchasi shunchaki muhit tasviri bo‘libgina qolmay, ayni damda Varkaning ichki holati timsoli hamdir. Chexov o‘z kasbi - shifokorlikning ham ustasi ekanligini shu asari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Chunki hikoyadagi qizchaning doim ko‘ziga ko‘rinadigan yashil ko‘kimtir dog‘ - bu inson uyquga to‘ymay qolgandan va keyinchalik gallyutinatsiyaga yuz tutgandagi holat hisoblanadi; yozuvchi muhitni ifodalash va qizning ruhiy holatini ochib berishda ushbu kichik timsoldan ham ustalik bilan foydalangan. Varkaning uxlashga bo‘lgan kuchli xohish-istagi hatto hikoya nomiga ham ko‘chgan. U har qadamda - kartoshka archayotganda ham, bolaga alla aytayotganda ham, xo‘jayinining kalishini yuvayotganda ham ozgina mizg‘ib olish haqida o‘ylaydi, o‘tirgan joyida ham mudroq holatda tushlar ko‘radi. Hattoki kun yorishib yelkasiga bir talay yumushlarni bajarish ma‘suliyati tushganda ham u quvonadi, chunki ish qilayotgan payti uyqu xumori biroz pasayadi: - “ U xursand, chunki yugurib ish qilib yurganda bir joyda o‘tirganday uyqu kelmaydi. U o‘tin keltirib, olov yoqarkan, qotib qolgan yuzlari yumshab, ruhi yengillashganday bo‘ladi.”[1]

Biroq fiziologik jihatdan ham odam tanasi uchun uyqu suv va havodek zarur, ayniqsa 13 yashar qizaloq uchun. Bu oxir-oqibat o‘z kuchini ko‘rsatadi; Varka uyqu istagining kuchliligidan uxlashga monelik qilayotgan narsani qidirishga kirishadi, bular barchasi muttasil uyqusizlik natijasida mudragan ahvolda sodir bo‘ladi va nihoyat u “dushman”ni topadi - u bola ekan! U beixtiyor kulib yuboradi, uxlashiga to‘sqinlik qilayotgan dushmandan hoziroq qutulishini o‘ylab sevinadi - asta sekin bolani bo‘g‘adi va polga yotib uxlay boshlaydi: - “U kulib, ko‘zlarini qisib, shipdagi



dog‘ga qarab, barmog‘i bilan tahdid qiladi, asta belanchak yoniga boradi va engashib bolani bo‘g‘adi; keyin darhol polga yotib uxlashning iloji topilganidan behad sevinadi va bir daqiqadan so‘ng o‘likday uxlab qoladi...”[1]

Badiiy matn ijodkor uslubining mahsuli sifatida uning ijodiy individualligini belgilashi ma‘lum. Matn va uslub uyg‘unligi masalasi, shu jihatdan, alohida ahamiyatga ega. Ushbu ikki badiiy hodisa o‘rtasidagi adabiy-estetik munosabatni o‘rganish shoir yoki adib asarlarining asl mohiyatini aniqlash imkonini beradi.[4]

Hikoyaning xotimasi shafqatsizlarcha yozilgan bo‘lsa-da, bu kitobxon ongida chuqur iz qoldiradi va o‘sha zamon muhitini ma‘lum ma’noda his qilib ko‘rishiga imkon beradi.

Varkaning fojiasi individual baxtsizlik emas; bu chor Rossiyasidagi tizimli zo‘ravonlik va huquqiy himoyaning yo‘qligining bevosita namunasidir. Hikoya farovonligi yo‘q jamiyatning quyi qatlamlarining jismoniy va ruhiy qulashini asosli ko‘rsatib bera olgan hisoblanadi. Muallif butun boshli mamlakatning fojiaiy holatini mohirlik bilan qisqa hikoyada bitta oila tasviri vositasida ifodalab bergani esa tahsinga sazovordir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anton Chexov “Uyqu istagi”. Ziyo nashr. Toshkent. 2023
2. uz.wikipedia.org
3. ziyouz.com
4. Laylo Usarova “ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA MILLIY RUH IFODASI Monografiya”. “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. 2023